

BAHO MUNOSABATI UNING SEMANTIK TAVSIFI

Abdraximova Nadira Umirbekovna

J.Tashenev universiteti magistranti (Qozog'iston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada baho munosabatining semantik tabiati, uning mantiqiy, lisoniy va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Baho subyekti, obykti hamda baholash asosi bo'lgan me'yor va etalon tushunchalarining o'zaro munosabati yoritiladi. Shuningdek, mutlaq va qiyosiy baho, denotativ hamda konnotativ ma'nolarning nutqiy voqelanishi misollar asosida izohlanib, bahoning semantik maydondagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *baho munosabati, semantik maydon, baho subyekti, baho obykti, me'yor, etalon, mutlaq baho, qiyosiy baho, pragmatik baho, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, semantik tavsif*

Baho mazmuniy birlik sifatida tilda namoyon bo'ladi hamda turli shakllar orqali o'z ifodasini topadi. Baho tilning barcha sath birliklari orqali ifodalanadi va alohida semantik maydonni tashkil etadi. Bu esa baho semantik maydonining til semantik strukturasi alohida o'rin egallashini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida subyektiv baho formalarining semantik va stilistik tadqiqiga bag'ishlangan R. Qo'ng'urov, R.Rasulov, R.Hadyatullayev kabi olimlarning qimmatli asarlari mavjud.(1)

Baho munosabati XX asrning 70-80-yillarida formal logika tadqiqi asosida yuzaga chiqqan yo'nalish bo'lib, undan ilgari ba'zi tadqiqotlarda turli aspektlarda yoritilgan bo'lsa-da, mukammal va keng qamrovda o'rganishga keyingi yillardan kirishildi.

Baho munosabatini belgilashda quyidagi tushunchalarga aniqlik kiritish muhim o'rin tutadi:

- 1) baho subyekti, ya'ni baho beruvchi shaxs;
- 2) baholashga asos bo'ladigan predmet, shaxs, ya'ni baholanuvchi shaxs, predmet (obyekt);
- 3) baholash asosi — me'yor, etalon tushunchalari.

Baho subyekti deganda, ma'lum predmetni o'z nuqtayi nazaridan yoki boshqa predmetga qiyosan baholovchi shaxs tushuniladi.

Har qanday shaxsning o'z dunyoqarashi predmetni his etishi, u haqda o'z munosabatini bildirishi shaxs bahosidir. Shaxs bahosi aksariyat hollarda individual xususiyat kasb etadi, ba'zan umumlashgan bo'lishi ham mumkin.

Baholashga asos bo'ladigan predmet (obyekt) deyilganda, baholovchi shaxs uchun asos bo'lgan narsa tushunilsa, uning ma'lum holatda, makonda, zamonda tutgan o'rni ahamiyatlidir. Obyekt bahosi narsaning qiymati sanaladi.

Shu o'rinda subyekt o'z xohishiga ko'ra baholayotgan obyektini turli xususiyatga ega deb ko'rsatish mumkin.

Asos — me'yori, etalon. Har qanday predmet baholanganda, u mavjud asosga, etalonga nisbatan olinadi. Baho qiyoslashdan ajralmasdir. Shunday ekan, baho chog'ishtiruv asosida ro'yobga chiqadi. Ayni chog'da, chog'ishtiruv zohiriy yoki botiniy bo'lishi mumkin. Bu xususiyat shakllanishi, o'zgarishi mumkin, shunga ko'ra o'sha predmet bahosi ham ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan: *Endi ularning ko'zlarida g'azab emas, tuhmat balosiga duchor bo'lgan bir bechoraga shafqatga o'xshash bir narsa paydo bo'ldi* (M.Ismoilij). Bu o'rinda asar qahramoni To'lajonning kishilarga baho berish jarayoni tasvirlangan: avval unga g'azab ko'zi bilan qarayotgan kishilarning ko'zlarida endilikda shafqat paydo bo'layotgani baho berishga asos bo'lgan etalon o'zgarganligini ko'rsatadi. Natijada salbiy baholanayotgan obyekt endi subyekt nazdida ijobiy bahoga ega bo'lmoqda. Baho berilayotgan payt (zamon), ijtimoiy muhit pragmatik asos o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Umuman olganda, baho beruvchi shaxs (subyekt) baholanuvchi shaxs (obyekt)ning bir yoki bir nechta xususiyatlarini e'tiborga oladi va umumiy me'yorni asos sifatida qo'llaydi. Har qanday sharoitda ham baho beruvchi shaxs o'z manfaatini birinchi planga chiqaradi hamda shu asosda obyektga munosabatini bildirib, subyektiv bahoni yuzaga chiqaradi.

Anglashiladiki, baho munosabatini belgilashda baho subyekti, ya'ni baho beruvchi shaxs, baholashga asos bo'ladigan predmet, shaxs, ya'ni

baholanuvchi shaxs, predmet (obyekt) va baholash asosi — me'yor, etalon tushunchalari muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, nutqiy jarayondagi baho xususiy bo'lib, boshqa baholarga nisbatan belgilanadi. Nisbatlash esa o'zaro qiyosdan kelib chiqadi. Qiyoslash so'zlovchi va tinglovchining umumiy bilish xazinasini, saviyasi hamda boshqa qator omillarga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday baholarni qat'iy deb bo'lmaydi.

Har kim saviyasiga mos holda qiyoslash orqali baholaydi, shu bois bunday baholar nisbiy hisoblanadi. Xuddi bir sinfda o'qiyotgan o'quvchilarga bir xil savol berib, turlicha baho qo'yilganday. Insonlarning dunyoqarashi, xarakteri, fikrlash qobiliyati bir xil emas, shuning uchun tushunish darajasi ham, baholash o'lchovi ham bir xil bo'lmasligi tabiiy.

Demak, nutqiy vaziyatda obyektga berilgan baho doimo nisbiy hisoblanadi. Ko'pincha, nutq jarayonida berilgan baho bevosita bo'lmay, bilvosita - ikkinchi bir narsaga qiyoslash orqali, "aqling bo'lsa, tushunib ol" tarzida beriladi. Bunday baholar sharq xalqlarida juda keng qo'llanilib, uni sharqona lutf deb ham atashadi. Bunday usulda berilgan baholarning asosida o'xshatish-qiyoslash yotadi. Baho ifodalashning bunday turini og'zaki so'zlashuv tilida, badiiy asarlarda, xalq maqollari, askiyalarda ko'plab uchratish mumkin.

Baholar xarakteriga ko'ra mutlaq va qiyosiy bo'lishi mumkin.

Obyektiv baho - predmet tasavvur etilgandayoq his qilinishi mumkin bo'lgan baho shakli bo'lib, u obyektiv baho deb ham yuritiladi. Mutlaq bahoda kishilik jamiyati tomonidan qabul qilingan umuminsoniy o'lchovlarga javob bera oladigan me'yor mavjud bo'ladi yoki u ma'lum bir xalq uchun xos bo'lgan xususiyatlar orqali oydinlashadi, ijtimoiylik kasb etib qoladi.

Subyektiv baho - subyektning baholanayotgan shaxs yoki predmetga munosabati asosida yuzaga keladi. Bunda subyektning yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, e'tiqodi va yana qator omillar ahamiyatli sanaladi. Qiyosiy bahoda eng kam ikki predmet o'zaro qiyoslanadi. Qiyoslanish ochiq yoki yashirin tarzda bayon qilinadi. Baho berishning bu shaklida har bir subyekt o'z nuqtayi nazarini bo'yicha hukm chiqaradi. Shuning

uchun ko'p hollarda, bir obyektning turlicha baholanish holatlari uchrab turadi.

Mantiqiy baho ikki xil bo'lishi haqida yuqorida aytib o'tildi: mutlaq va qiyosiy. Bahoning bu kabi 2 guruhga ajratilishi mantiqiy va lisoniy bahoni o'zaro tenglashtiradi, natijada mantiqiy bahodagi asos lisoniy bahodagi semantik munosabatga teng keladi. Mutlaq baho subyektning barcha obyektlar uchun va obyektiv borliqdagi barcha narsa, voqea-hodisa, belgi, harakat uchun ijobiy, neytral, salbiy munosabat ifodalashini bildiradi. Bunda lisoniy jihatdan denotativ ijobiylik, neytrallik yoki salbiylik ifodalanadi.

Agar subyekt va asos munosabatlari aniq bo'lsa, u holda bunday obyektning mantiqiy bahosi ham aniq va muhim bo'ladi. Bu holdagi mantiqiy - mutlaq baho bir asosli sanaladi. Qiyosiy-mantiqiy baho esa ikki asoslidir.

Mantiqiy va lisoniy jihatdan baho munosabatlari o'zaro aloqador va biri ikkinchisini taqozo etadi.(2) Mantiqiy bahoning ro'yobga chiqishi lisoniy vositalar orqali amalga oshadi.

Sintaktik jihatga ko'ra, har qanday sistema formal logikaning shakliy tizimi orqali yuzaga chiqadi. Mutlaq baho sintaktik jihatdan qat'iyy shakl asosida ro'yobga chiqadi. Shunga ko'ra baho tushunchasi ratsional me'yor asosida olinadi va baho munosabati ifoda etadigan tushuncha me'yor sifatida olib baholanadi: odil (ijobiy), johil (salbiy), dono (ijobiy), ahmoq (salbiy) kabi.

Pragmatik baho me'yori hosil qilingan amaliyot asosida aniqlanadi hamda u ekstralingvistik omillarga asoslanadi. Semantik me'yor ko'p aspektli bo'lib, mantiqiy munosabati (borliqdagi haqiqiy denotativ baho ma'nosi va individning bunga munosabati)ga aloqadordir.

Bahoning ifodalanishida ma'lum predmet bahosi davriy o'zaro zid munosabatlarni ifodalashi mumkin yoki baho munosabati turli individlar tomonidan o'z nuqtayi nazariga ko'ra o'zaro qarama-qarshi baho munosabatini ifodalab kelishi mumkin. (4) Masalan:

Yozuvchi dilni-dilga payvandlagan lahza tasvirida so'zga xasislik qilardi. (D.Quronov)

Xasis - biror narsa bermaslikka, sarflamaslikka intiladigan kishi; ziqna, qizg'anchiq (O'TIL. II tom, B-318) .

Xasis leksemasi baxil, ziqna, qizg'anchiq, nokas, noinsof kabi leksik birliklar bilan sinonim bo'la olish imkoniyatiga ega. Keltirilgan misoldagi xasislik ma'nosi yuqoridagi sinonimik qatordagi leksemalarning ma'nolariga mos kelmaydi.

Berilgan gapda xasis leksemasi sarflamaslikka intiluvchi kishi ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, unda yozuvchining so'z qo'llashdagi tejamkorligi, topqirligi, mahorati, so'zga o'ta e'tibor bilan qarashliligi kabi xususiyatlari namoyon bo'lmoqda. So'zni topib aytish, uni o'rinli qo'llay bilish shaxs uchun ijobiylik kasb etadi. Shunga ko'ra, yuqoridagi misolda berilgan xasis leksemasidagi denotativ ma'no o'rniga konnotativ ma'no yuzaga chiqmoqda va yozuvchiga nisbatan subyektning ijobiy munosabati xasis leksemasi orqali ochib berilmoqda. Bu baho pragmatik nuqtayi nazardan yuzaga chiqmoqda.

Bu o'rinda "xasis" leksemasi anglatadigan tushunchaning kontekstual mazmunidagi o'zaro kontrast ma'nolarni eslatib o'tish o'rinli bo'ladi.

Ushbu mantiqiy jihatning lisoniy ko'rinishi lug'aviy birlikning turli vositalari yordamida ko'chma ma'no kasb etadi, so'zning semantik tuzilishida o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi. Bu esa kontekst, pauza, talaffuz, pragmatik muhit, ekstralingvistik asoslar va boshqalar asosida amalga oshiriladi.

Subyektiv baho logikasining asosiy prinsipi uning assimetriklik xususiyatidadir. Ya'ni, A V dan yaxshi (yomon), demak, V A dan yomon (yaxshi).

Qiyosiy baho, shu bilan birga, nisbiy baho ifodalaydi. A V dan yaxshi, V S dan yaxshi, demak, A S dan yaxshi .

Subyektning munosabati o'sha qiyoslanayotgan predmet xususiyatlariga qay tarzda qarashiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Subyekt har qanday obyektga munosabatini bildirar ekan, u o'z dunyoqarashi, istagi, obyektidan keladigan manfaat va yana bir qancha omillardan biriga yoki bir nechtasiga suyangan holda munosabat bildiradi.

Obyektga subyektning baho munosabati o'zgarib turishi mumkin. Subyektning munosabati o'zgargani bilan baholashning asosi va tuzilishi o'zgarmaydi.

Masalan, N.Qobulning "Oq kaptarlar" qissasidagi "Ozor" hikoyasida bolaning chumchuq otishiga Oygilos opa:

"Boplabsan! Bu oting o'chgur chumchuqlarga qolsa, bog'dagi uzumni bir kunda eb tugatishadi"-deya (85-bet) ijobiy baho munosabatini bildirsa, o'rtog'i Bozorboyning otasi: *"Yaxshiga ipak, yomonga tikan ilashgandek osib yurgan narsasini qara!.."* va Shodmonqul aravakash: *"Tavba! Shuni aytadilar-da yomonning bir qiligi ortiq deb"* (87-bet) salbiy munosabat bildiradi. Bundan ko'ramizki, bir obyektga turli subyektlar munosabati bir-biridan farqlanadi.

A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari qahramoni Zaynabga munosabat bildirganlar ham uni ijobiy yoki salbiy timsol deb, o'z fikrlarini isbotlaydilar. Bu individning ikki xil ekanidan va shu asosda ikki xil baho berilishidan dalolatdir.

Baho tushunchasi ko'p hollarda haqiqiylik prinsipidan uzoqlashishi va uning ifodasi lisoniy tushunchaga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bu jihatdan mantiqiy va lingvistik baho munosabati nomutanosib kelishi hollari kuzatiladi. Bunday nomutanosiblikka lingvistik va ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi.

Demak, baho mantiqiy kategoriya sifatida mantiq fanining tekshirish obyektiga kiradi. Mantiq bahoning o'ziga xos elementlarini tekshirish jarayonida falsafa, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, tilshunoslik kabi sohalar bilan aloqada bo'ladi.

Shunga ko'ra, hozirda mantiq bahoning umumiy qonuniyatlarini o'rganib, mantiqiy baho nazariyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ayni paytda bu nazariya lingvistik baho tushunchasi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi va u bu fanga o'z muammolarini echishda manba sanaladi. Tilshunoslik keyingi yillarda an'anaviy usullardan chekingan holda tilni funksional, logik-semantik aspektlarda o'rganmoqda. Natijada bu sohada tilshunoslikning o'rganilishi lozim bo'lgan yangi-yangi aspektlari ochilmoqda va bunday holat lisoniy ilmni mukammal o'rganishga asos bo'lmoqda.

Tilga mantiqiy yondashish natijasida til sathlari va sath birliklarining mantiqiy jihatlari aniqlanmoqda, mantiqiy kategoriyalar muqoyasa qilinmoqda. Har qanday mantiqiy munosabat til birliklari orqali ifodalanadi. Shu qatorda baho munosabatlari, ularning obyektiv borliqda mavjudligi, tushuncha sifatida inson ongida paydo bo'lishi, uning turlari, mezonlari kabi masalalar aksiologik muammo bo'lib, faylasuf va mantiqshunoslarning o'rganish obyekti sanalsa, bahoning tilda namoyon bo'lishi, uni ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, paralingvistik vositalar, baho semantikasi kabi masalalar tilshunoslar tomonidan o'rganiladi.

Agar mantiq ilmida qiyosiy va mutlaq baho munosabatlari mavjud bo'lsa, tilda sifat darajalari, sinonim so'zlardagi ma'no nozikliklari mavjuddir.

Agar voqelikda inkor va tasdiq, ijobiy va salbiy munosabatlar mavjud bo'lsa, tilda inkor va tasdiq gaplar, bo'lishli va bo'lishsiz, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik, antonim, oksyumoron munosabatlar mavjuddir.

Baho munosabatlari mantiq va tilshunoslik fanlarining o'zaro dialektik aloqasi asosida o'rganiladi.

Pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri baho sanaladi. Lisoniy birliklarning mazmuniy tuzilishidagi baho semasi lingvistik pragmatikaning tekshirish obyekti hisoblanadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan baho munosabatlari dastlab N.A.Arutyunova, G.G.Kashel, S.S.Xidikel, A.A.Ivin kabi olimlar asarlarida yoritila boshlandi. Jumladan, N.D.Arutyunova bahoni logik-semantik yo'nalishda tekshirdi. S.S.Xidikel va G.G.Kashel tadqiqotlarida baho ifodalovchi leksik vositalarning semantik tasnifi berilgan bo'lib, ular faqat umumiste'moldagi leksemalarga e'tiborni qaratadilar. N.D.Arutyunova ikki xil nopredmet obyektini ajratishni kifoya deb biladi: jarayon (holat, xususiyat, hodisa) va faktlar (ya'ni propozitsiyalar).(3)

Birinchisi, insonning obyektiv borliqqa singib borish muhitini, ikkinchisi borliqning inson ongiga singishi natijasini bildiruvchi narsa-tushunchalarni umumlashtiradi. U o'z fikrini davom ettirib, birinchi guruhga quyidagi predmetlarni kiritish mumkinligini aytadi:

harakatlanish va harakatsizlik, harakat yoki holatning darajalanishi, natijalilik va natijasizlik kabi.

Ikkinchi holat uchun belgilarga qarab ajratish xarakterli bo'lib, haqiqat va faraziy (taxminiy), haqiqat va yolg'on, tasdiqlash va rad etish singari xususiyatlar olinadi.

O'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatika yo'nalishini o'rganish natijasida 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida tilshunoslik fanida matn lingvistikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Ular faqat lingvistik pragmatikaning markaziy masalalariga oid bo'lib, pragmatik presuppozitsiyani o'rganish uchun imkoniyat yaratdi. Boshqa tadqiqotlarda esa asosan «jumla», «matn», «nutq» muammolari bilan bog'liq hodisalar ustida ish olib borildi. (3) Kontekst masalalari xususidagi bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatikani o'rganishga yo'l ochdi. Lingvistik pragmatikaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, asosan, tilshunoslikda mazmuniy sintaksis muammolari bilan bog'liq yangi nazariy adabiyotlarning nashr qilinishi natijasidir. Bunday ishlarning amalga oshirilishi semantik sintaksis masalalarini yanada murakkablashtiradi va pragmatik tadqiqotlar uchun yo'l ochadi.

Baho ma'nosi obyekt va subyekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, ya'ni so'zlovchi (subyekt) obyektдан ta'sirlansa yoki unga o'z munosabatini bildirish istagi tug'ilsa, u o'z fikrini bayon qiladi. Natijada baho ma'nosi yuzaga chiqadi.

Bahoning belgisi obyektga bog'liq bo'lib, shu asosda ijobiy, betaraf, salbiy munosabatlardan biri oydinlashadi. Ijobiy yoki salbiy baho betaraf (neytral) ma'noli leksemadan qancha uzoqlashib borsa, ijobiylik va salbiylik ma'nolari shu darajada kuchayib boradi. Bunday ko'rinishda obyektga ijobiy yoki salbiy baho berish jarayonida darajalanish xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Baho munosabatining lisoniy tomoni semantik strukturada o'z ifodasini topadi.

Mazmun planining yo'nalishi bo'lmish baho turli til sathlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Bu haqda R.Qo'ng'urov o'z qarashlarini bayon etib, shunday deydi: "Ijobiy yoki salbiy munosabat turli xil formalar (morfologik), ayrim

soʻzlar (leksik), konstruksiyalar (sintaktik), forma va soʻzning qoʻshilishi (leksik-morfologik), intonatsiya (fonetik) yordamida ifodalanadi”.(4)

Ular soʻzlardan kichik birliklar orqali, shuningdek, soʻzlar, soʻzlardan katta birliklar orqali va hattoki supersegment vositalar yordamida bayon qilinarkan, bu jarayon noverbal vositalar orqali ham amalga oshishi mumkin boʻladi. Soʻzlovchi oʻzining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirishda qoʻshimcha jest va mimikalardan ham foydalanadi. (5)

Baho maʼnosi predmet yoki harakatning belgisi (keng maʼnoda qiymati), munosabatini ifoda etgani uchun koʻp holda sifatlar va ravishlar baho maʼnosini tashuvchi soʻzlar hisoblanadi: *yaxshi-yomon, chiroyli-xunuk, ishchan-yalqov* va boshqalar.(6)

Baho semantik kategoriya sifatida tilshunoslikning tekshirish obyektiga kiradi. Baho tilshunoslikda semantik kategoriya sifatida semasiologik va onomasiologik tahlil etiladi. Bunday tahlil etishda bahoning semantik elementlari eʼtiborga olinadi.

Shu jihatdan bahoni yuzaga keltiruvchi birliklar qaysi sathga (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto ekstralingvistik unsurlar va b.) mansub boʻlishidan qatʼiy nazar, ularning maʼno qirralari tahlilga tortiladi. Tahlil jarayonida subyekt va obyekt oʻrtasidagi shartnomaviy munosabatni eʼtiborga olib ish koʻrish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qoʻngʻurov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. - T.: Fan, 1980. – 166 b.; Rasulov R. Ijobiy munosabat ifodalovchi ruhiy holat feʼllari haqida. Til va adabiyot taʼlimi. -2004. № 1. –B. 39-45.;

2.Hadyatullayev R. Oʻzbek tilida subyektiv baho formalarining maʼnolari haqida//Oʻzbek tili va adabiyoti. - 1969. –2-son. –B.62-64.

3.Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки//Вопросы языкознания. - 1985. - №3. –С.13-14.

4.Qoʻngʻurov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent, 1980; Mahmudov N. Oʻzbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. Toshkent, 1984, 3-19-betlar.

5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. Toshkent, 1989;
6. Abdupattoyev M. O‘zbek tilida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom.diss.avtoref. Toshkent, 1997.
7. Saparniyazova, M. (2022). Fononeymlar: tilda nom yaratishning fonetik xususiyatlari. *Uzbekistan language and culture*, 5(1).
8. Saparniyazova, M. (2025). O‘zbek ismlari imlosi va izohidagi ayrim munozarali masalalar. *xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, 1(6), 86-92.
9. Ismailov, G. Anthropocentrism in phraseological picture of world (on the example of uzbek, kazakh and karakalpak languages). *中国湖州* 2022 № 4 (13), 137.
10. Ismailov, G. M. (2017). Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). *Polylinguality and transcultural practices*, 14(1), 85-92.
11. Rahmatov, M. (2020). O ‘zbek tili sintaksisi rivojida chun bog ‘lovchisining o ‘rni. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).
12. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudi as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.